

## O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMINING MODERNIZATSIYALASH JARAYONLARI VA UNING HUQUQIY MEYORING ASOSLARI

**Sayfullayeva Sabina Ibragim qizi**  
**Abdukarimova Nilufar Qobil qizi**  
*Samarqand davlat chet tillari instituti*  
**Daminova Nigora Qudratovna**  
*Ilmiy rahbar*

**Annotatsiya:** *Maqolada ta'lim tizimini modernizatsiyalashning muhim yo'nalishlari va huquqiy meyorlari asosida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *modernizatsiya, innovatsiya, kredit, evolyutsiya, revolyutsiya, globalizatsiya, monitoring, ilg'or texnologiyalar.*

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: **“Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi”**. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Modernizatsiya - ( lotincha - modeme – eng yangi) – takomillashtirilgan, yaxshilangan, yangi talabalarga javob bera oladigan degan ma'noni bildiradi. Ushbu so'z borgan sari hayotning barcha jabhalarida keng qo'llanilib bormoqda. Mazkur modernizatsiya shaxsni o'qitish va tarbiyalashga oid eng yaxshi an'analarni saqlab qolgan va boyitgan holda majmuaviy xarakter kasb etib, ta'lim tizimining barcha sohalarini to'la qamrab oladi va jamiyatda qaror topgan malakali mutaxassislarni tayyorlash borasidagi ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi. Ta'lim tizimining modernizatsiyalashda quyidagi ustuvor vazifalar hal qilinadi:

- har bir shaxsning to'laqonli ta'lim olishida boshqalar bilan teng huquqliligi va ta'lim olishning ochiqligini ta'minlash;
- uzluksiz ta'lim tizimida yangi sifat ko'rsatkichlariga erishish;
- yangi ta'lim resurslarini jalb qilish va ulardan samarali foydalanish asosida uzluksiz ta'lim tizimida samarali me'yoriy-huquqiy va tashkiliy- iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish;
- davlat va jamiyatning qo'llab-quvvatlashi negizida ta'lim tizimi xodimlarining ijtimoiy maqomi va kasbiy kompetentligini rivojlantirish;
- ta'lim tizimining davlat va jamoatchilik boshqaruviga asoslanganlik tamoyiliga muvofiq ta'lim jarayoni ishtirokchilari –talabalar, pedagoglar, ota onalar va ta'lim muassasalarining rolini oshirish.

XX asrning 50-yillarida ta'lim jarayonida texnik vositalarni qo'llash "ta'lim texnologiyasi" yo'nalishini belgilab beruvchi omil deya e'tirof etildi, asosiy e'tibor talabalar auditoriyasini kengaytirish texnik vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirilishi, texnik vositalarning imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, ularning axborot sig'imini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, ta'lim olishni individuallashtirish kabi masalalarga qaratildi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarning ob'ekti, tayanch nuqtasi sifatida texnik vositalar imkoniyatlari, ularni takomillashtirish jarayoni qabul qilindi.

Davlatimiz rahbarining 2015 yil 12 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarishga, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining kasb darajasi va malakasini muttasil oshirib borish, ularni zamonaviy talablarga muvofiq muntazam qayta tayyorlashning takomillashtirilgan tizimini joriy etish asosida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yuksaltirishni ko'zda tutgani bilan nihoyatda ahamiyatlidir. Hamda 2011-2016 yillarda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini modernizatsiyalash va mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash bo'yicha Dasturning amalga oshirilishi ustidan tizimli monitoring o'rnatish aytib o'tildi. Prezidentimizning 2011 yil 20 maydagi «Oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayèrlash sifatini tubdan yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori Oliy ta'lim muassasalarini modernizatsiyalash, ularning zamonaviy o'quv va ilmiy laboratoriya jihozlari bilan ta'minlash, ta'lim jarayonlarini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda o'qitish shakllarini joriy etish, o'qituvchi kadrlar mehnatini rag'batlantirishni kuchaytirish asosida iqtisodiy soha va tarmoqlarida talab qilinadigan oliy ma'lumotga ega mutaxassislarni tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadlarini qamrab olgan.

Xulosa qilib aytganda davlatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar yurtimiz kelajagini yaxshilash uchun qo'yilgan poydevordir. Shu sababdan ta'limning ma'naviy-axloqiy mazmunini oshirish, talaba-yoshlarga mustaqillik g'oyalariga, yuksak ma'naviyat va insoniylikning milliy an'analariga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g'oya va mafkuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish; ta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini o'quv va ilmiy-laboratoriya bino va korpuslari, sport inshootlari, ijtimoiy-muhandislik infratuzilmasi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ilm-fanning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha o'quv-ilmiy laboratoriyalarini zamonaviy asbob va uskunalar bilan jihozlash orqali yanada mustahkamlash; ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan jihozlash, muassasalar talabalari, o'qituvchilari va yosh tadqiqotchilarining jahon ta'lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish ishlari olib borilmoqda.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston taraqqiyotining poydyevori. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontserni, 1998.
2. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» Barkamol avlod
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent, O'zbekiston, 1992.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevningning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. // "Xalq so'zi", 8 fevral 2017